
SO'XLIKLARGA G'AMXO'RLIK



SO'XLIKLARGA G'AMXO'RLIK

Mana ikki yarim oydirki asr vabosi - koronavirus tufayli jahon ahli karantin holda yashab kelmoqda. Mamlakatimizda olib borilgan va olib borilayotgan tezkor chora-tadbirlar tufayli bu pandemiya oldi olinmoqda va kasallikka chalinganlar shifokorlarning say-harakatlari tufayli sog'aymoqdalar. Bunda mamlakat xavfsizlik choralarini ko'rmqda. Prezident va hukumat har bir fuqaroni turmush tarzi, sog'ligi, yashash sharoiti bilan tanishib, moddiy, ma'naviy va bepul tibbiy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Shu og'ir va sinovli kunlarda xalqimizning saxovatpesha kishilari qo'llaridan kelgancha ko'mak bermoqda. "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati keng quloch yoydi.

So'x tumanida ham ushbu og'ir sharoitdan chiqish uchun qator amaliy ishlar amalga oshirildi va oshirilmqda. Mamlakat Prezidenti va hukumatimiz nazaridan chetda qolmagan So'x xalqi koronavirusdan xoli hududga aylandi. Bu hammasi o'z vaqtida kurilgan chora tadbirlar va karantin qoidalariga qat'iy rioya qilish tufayli ekanligi sir emas.

To'rt tomoni Qirg'iziston bilan o'rab olingan anklav So'xdan 200 dan ortiq fuqarolar har xil sabablar bilan viloyat markaziga kelib, karantin tufayli qolib ketdilar. Viloyat hokimi Sh. G'anievning bevosita e'tibori va g'amxo'rligi tufayli karantinda qolgan So'xliklarga zarur shart-sharoit yaratib berildi. "Vaqf" xayriya fondining viloyat filiali tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlandilar. Viloyat hokimi topshirig'i bilan 132 nafar so'xliklar "Zilol" sanatoriyasiga joylashtirildi. 3 mahal ovqat va muntazam tibbiy nazorat ostida dam olmoqdalar.

- "Musofirlik oson emas", - deydi D. Davronov. - "Lekin doimiy g'amxo'rlikdamiz. Buning uchun viloyat hokimidan, saxovatli kishilardan minnatdormiz".



- "Haqiqatdan ham ikki yarim oy davomida xalqimizning mehr-oqibatligini, xayru saxovatpeshaligini ko'rib, lol qoldik," - deydi o'qituvchi Bahobjon Maksimov. - "Biz sanatoriyaning tabiblari Yoqubjon Latipov, Muhammadaly Niyoziddinov, Ma'rifchon Ahmadaliev, hamshiralar Kumushxon Nurmatovayu Dilfuza Bahromovalardan minnatdormiz. Ularning mehribonliklari, xushmuomalaliklaridan karantinni ham esdan chiqardik, sog' bo'lsinlar". Sanatoriya bosh hakimi Yoqubjon Latipovning ta'kidlashicha, 76 nafar vrach va hamshiralar so'xliklar xizmatida bo'ladilar.

Viloyat hokimi Sh. G'anievning ko'rsatmasiga asosan 15 nafar so'xliklar viloyat kardiologiya markaziga joylashtirildi. Markaz bosh hakimi Ilhom Mallaevning xizmatlari alohida maqtovgga loyiq. Shuningdek, R. Amirshoev, O. Ahmadjonovlar ham markaz shifokorlari B. Jumaev, N. Isoev, M. Eranov, S. Umaraliev, M. Mirzorahimov, hamshiralar N. Umarova, M. To'xtasinova, R. Mamadalieva, M. Isomova, Sh. Isomovalar haqida iliq so'z aytdilar. Ularning xizmatlaridan minnatdor ekanliklarini bildirdilar.

Farg'onadan tashkil etilgan maxsus shtab a'zolari F. Jo'raev, B. Latipov, N. Amirshoev, T. Abdulloev, M. Mirzoev, S. Oxonovlar barcha karantinda qolgan so'xliklarni aniqlab, ruyxatga olib, moddiy-ma'naviy yordamlarni o'z egalariga yetkazishda sadoqat bilan xizmat qildilar.

Ha, ikki yarim oydan buyon oilamizdan, yor-birodar, qon-qarindoshlarimiz va yashash joyimiz - jannatmakon So'x vohasidan uzoqda saxovatli, bag'ri keng insonlar bag'rida yashayapmiz. Davlatimiz, viloyat rahbarlarimiz himoyasi va nazoratida bo'lib, hamisha duodamiz. Parvardigor bu og'ir sinovli kunlarni ham daf' etishdan, yana yaxshi kunlar kelishidan va hayotimiz o'z iziga tushishdan umidvormiz.

Sodiqjon TOHIROV - "Sadoi Sux" ro'znomasi

bosh muharriri, Farg'ona shahri

2020-05-28 13:49:51